

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.Abdullayeva	
XX asrning 20-yillarida Buxoro me'moriy obidalarining ta'miroti masalasi	324
F.Temirov	
Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari.....	328
I.Naimov	
Ahmad Donish ilmiy merosida islom huquqi masalalari.....	333
R.Rahimov	
Yevropa noshirlik uylari vujudga kelish tarixiga nazar	337
D.A.Choriyeva	
Madaniyat sohasida oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar muammosi va yechimlar.....	342
O.V.Mahmudov	
O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniya shaharlarining o'rni: Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya	353
A.A.Hakimov, B.A.Usmanov	
Amir Abdulloning Xorazm yurishi	360
N.X.Choriev	
Buxoro Amirligining janubiy hududlarida irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishi	365

ADABIYOTSHUNOSLIK

I.Yakubov	
"Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda	368
P.Bakirov	
Turli tizimli tillarda nominatsentrik maqollar mazmun plani	373
I.Mannopov	
Yassaviylik adabiyoti tahlili masalasi	379
Q.Yo'lchiyev	
Anvar Obidjon lirikasida semiotik xususiyatlar	383
J.Eshonqulov	
Hayrat Buxoriy ijodida ijtimoiy hayot va muhit tanqidining badiiy xususiyati	388
T.Matyobova	
Tuyg'u va kechinmani kitobxonga "yuqtirish" mahorati.....	394
M.Qurbonaliyeva	
Taqiuddin Muhammad Avhadiy "Arafot-ul-oshiqin" va Mutribiy Samarqandiy "Tazkirat-ush-shuaro" asarlarning qiyosiy tahlili	399
I.Eshonqulov	
Tazkiranavislar nuqtayi nazaridan Mirsiddiqxon Hashmatbuxoriy o'rnini anglash	405
H.Ne'matova	
Hoji Muinning "Kattaqo'rqon xotiralari" safarnomasi	413
X.A.Xaitov	
O'zbek adabiyotida lingvistika asosida kulgi uyg'otish masalasi	417
Samadi Nooria	
Maqollarning metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari	421
A.G.Sabirdinov	
Shuhrat she'rlariga bir nazar	427
S.Muminov, Z.Kamoliddinova	
Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida qo'llangan sinonimlarining lingvopoetikasiga doir.....	433

TILSHUNOSLIK

Sh.Iskandarova, D.Qo'ldasheva	
Furqat g'azallarida jonlantirishlarning ifodalanishi	439
Sh.A.Ganiyeva	
Frazeologik ma'no: kategorial va grammatik ma'no muammolari	443
D.Yuldasheva, S.Nishonova	
Maqollarda "bola" kontseptining ifodalanishi.....	447
M.Saminjonov	
Tilshunoslikda nutqiy janrlar va soha qasamlari masalasi.....	450
O.Latipov	
Rus, o'zbek, tojik va ingliz <i>tillarida "dog/it/sag"</i> zoonim so'zining konseptual talqini	454

BUXORO AMIRLIGINING JANUBIY HUDUDLARIDA IRRIGATSIYA TARMOQLARINING RIVOJLANISHI**РАЗВИТИЕ ИРРИГАЦИОННЫХ СЕТЕЙ В ЮЖНЫХ РАЙОНАХ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА****DEVELOPMENT OF IRRIGATION NETWORKS IN SOUTHERN REGIONS OF BUKHARA EMIRATE****Choriev Nuriddin Xushboqovich¹****¹Choriev Nuriddin Xushboqovich**– Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida o‘qituvchisi**Annotatsiya**

Maqolada Buxoro amirligining Chor Rossiyasi hukmronligi davridagi iqtisodiy qaramligi. 1873 yil 23 sentyabrda imzolangan Buxoro amiri Said Muzaffar va Fon Kaufman o‘rtasidagi shartnoma, temir yo‘lining qurilishi, irrigatsiya va melioratsiya ishlarining olib borilishi, yangi suv inshootlarining barpo etilishi va uning amaliyotda qo‘llanilishi, ishchilarga ish haqqini to‘lash shartlari va mehnatni rag‘batlantirish ishlari, beton va temirbeton yordamida suv ayrgichlarining qurilishi bayon etilgan.

Аннотация

В статье экономическая зависимость Бухарского эмирата в период правления царской России. Договор между бухарским эмиром Саидом Музаффаром и фон Кауфманом, подписанный 23 сентября 1873 г., о строительстве железной дороги, проведении ирригационных и мелиоративных работ, устройстве новых водных сооружений и использовании их на практике, описаны условия выплаты заработной платы рабочим и стимулирования труда, устройство водоотделителей с применением бетона и железобетона.

Abstract

The article deals with the economic dependence of the Bukhara Emirate during the rule of Tsarist Russia. The contract between the Emir of Bukhara Said Muzaffar and Von Kaufman, signed on September 23, 1873, on the construction of the railway, the implementation of irrigation and melioration works, the construction of new water facilities and their use in practice, the conditions for the payment of wages to workers and labor promotion works, construction of water separators using concrete and reinforced concrete are described.

Kalit so‘zlar: Chor Rossiyasi, Buxoro amirligi, suv, O‘rta Osiyo, temir yo‘l, temirbeton, foydalanish, suvchi, ariq, mustamlakachilik, ish haqqi, suv havzasi, Amudaryo, Murg‘obdaryo.

Ключевые слова: Царская Россия, Бухарский эмират, вода, Средняя Азия, железная дорога, железобетон, пользование, вода, ров, колониализм, заработная плата, водохранилище, Амударья, Мурғобдарья.

Key words: Czarist Russia, Bukhara Emirate, water, Central Asia, railway, reinforced concrete, use, water, canal, colonialism, wages, water basin, Amudarya, Murgobdarya.

KIRISH

Ilmiy izlanish davomida Vuxoro amirligining janubiy hududlarida ayniqsa, Surxon vohasida Chor Rossiyasining olib borgan irrigatsiya va melioratsiya ishlarini tashkil etishlari, hamda bu ishlarga mahalliy mutaxassislarining (mirob, dehqon, mirishkor) jalb etilishi bayon etilgan. Irrigatsiya inshootlarini barpo etishda yangi samarali usullardan keng foydalanganliklari izohlab berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR:

Ilmiy tadqiqotni o‘rganishda asosan Buxoro amirligi va Chor Rossiyasi o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, irrigatsiya va melioratsiya ishlarining natijalari, yangi suv inshootlarining barpo etilishi, Surxondaryo Davlat arxivi materiallaridan keng foydalangan holda ma‘lumotlarga xolislik bilan yondashuv orqali tadqiq etildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA:

Buxoro amirligining janubiy hududlarida ulkan irrigatsiya va melioratsiya ishlari Chor Rossiyasi hukmronligi davrida tezlashdi. Shu sababli Termiz shahri (harbiy garnizon) 1758-yilda Surxondaryo bo‘yidagi Eski Termizdan taxminan 8 kilometr janubda Pattakesar qishlog‘i o‘rnida paydo bo‘ldi¹.

Termiz shahrining bu yerda qurilishi inglizlarning Hindistonni zabt etib, Afg‘oniston, hatto Buxoro xonligini Chor Rossiyasiga qarshi undayotgan bir davrga to‘g‘ri keladi. Shunday sharoitda Rossiya o‘z ta‘sirini oshirish maqsadida O‘rta Osiyoga, jumladan, Sharqiy Buxoroga harbiy yurishni boshlab yubordi. Sharqiy Buxoroning tarkibiy qismi bo‘lgan Janubiy Surxondaryoning Termiz shahri XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida bir qancha ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni boshidan kechirdi.

1873-yilning 23-sentyabrida 18-moddadan iborat tuzilgan sulhga binoan, Buxoro Rossiyaga qaram davlat hisoblanib, unga boshqa mamlakatlar bilan aloqa qilish man etilib, Karkidan Vaxsh daryosining quyilish joylarigacha bo'lgan mintaqa ruslar uchun «strategik» ahamiyatga ega yerlar deb belgilandi. 1888-yilning 23-iyunida bu shartnoma qayta ko'rildi va qo'shimchalar kiritildi².

Shunga asosan, Termizda rus qo'rg'oni qurish masalasi hal etiladi. Shuningdek, Termizga ko'chib kelishi hamda tovar omborlari, sanoat korxonalari, har xil kichik do'konlar, yashash uchun uylar, kemalar to'xtaydigan joy (pristan) qurish uchun yer-mulk olishga ruxsat etildi.

1894-yilda Termizda ruslarning yirik harbiy kuchlari joylashtira boshlandi, shu yili Termizda mahalliy aholi «Tuproqqo'rg'on» deb atagan rus qo'rg'oni qurildi³.

Shu tariqa Termizda birinchi marotaba Yevropa ko'rinishidagi uy-joylar paydo bo'ladi. 1891–1906 yillarda rus qo'rg'oni xom g'isht devor bilan aylantirib olinadi va o'ziga xos qal'a-shahar yuzaga keladi.

Shunday qilib, Chor Rossiyasi O'rta Osiyo hududida vaziyatning kesknlashuvi xavfi borligini hisobga olib 1892-yilda maxsus kengash-yig'ilish chaqiradi va bu yig'ilishda Buxorodan Termizgacha, Termizdan Hisorgacha, Termizdan Ko'lobgacha temir yo'l qurish masalasi muhokama etiladi. Buxorodan Termizgacha temir yo'l qurilishi haqida 1910-yil 10-aprelida Rossiya hukumatining qarori chiqadi. Buxoro amiri ushbu qarorga o'z roziligini bildirib 1912-yilning 15-iyunida Rossiya yirik korxonasi egasi, muhandis Kovalevskiy bilan temir yo'l qurilishi haqida shartnomani imzolaydi.

Bu davrda nafaqat Termizda, balki butun o'lkada ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berdi, paxta va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish, rus kapitalining kirib kelishiga imkoniyat yaratildi. 1916-yilgi ma'lumotlarga ko'ra qisqa vaqt ichida Termizda mineral suv va meva sharbati ishlab chiqaruvchi sex ish boshladi.

Chor Rossiyasi davrida "Sherobod aksionerlik jamiyati" tashkil etilib aynan shu jamiyat orqali janubiy surxon hududlarida bo'sh yerlarni o'zlashtirish va irrigatsiya ishlarini amalga oshirish, hamda ishchilarga ish haqqini to'lash masalasi kelishib olinganligi, ayniqsa buning isbotini 1916 yil 21-30 martda Turkiston general gubernatori Genrix Antonovich "Sherobod aksionerlik jamiyati" ga 283 so'm 79 teyin o'tkazib berganligi va Chor Rossiyasi tomonidan ajratilgan mablag'larning 2% ni Qizil xo'jamg'armasiga o'tkazish kelishib olinganligida ham ko'rishimiz mumkin⁴.

1916-yil 1-iyundan boshlab olib boriladigan ishning ko'lami va muhimligi hamda ahamiyatligi inobatga olinib ish haqqi to'lash miqdori o'zgartiriladi:

1. Doimiy ishlaydiganlar.
2. Erkin yollanib ishlaydiganlar.
3. Mavsumiy ishlarda qatnashuvchilar.

Yuqorida ko'rsatilgan mehnat faoliyatlari uchun ish haqqiga 50% qo'shimcha ish haqqi to'lash joriy etiladi hamda, rag'batlantirish yo'lga qo'yilgan. Mehnat ta'tiliga chiquvchilar uchun omborxonadan belgilangan miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari yoki kundalik turmush uchun kerakli jihozlar olish huquqi berilgan. Ishchi va dehqonlar tomonidan berilgan shikoyat arizalari o'z vaqtida qoniqtirilishi belgilab qo'yilgan⁵.

Bularning barchasi avvalo bo'z yerlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirish hamda, irrigatsiya ishlarini tezlashtirish maqsadida amalga oshirilgan. Avvalo Termiz Patta-kesar ishchi dehqon uyushmasida muhandis (injener)lar boshlig'i Ya. Yashyrkov tomonidan buyruq berilib, barcha buyumlar, mehnat qurollari, kerakli jihozlar va hujjatlar qo'riqlanishi buyurilib, namoyishlar va qo'zg'olonlar chiqmasligi qat'iy belgilab berilganligi fikrimizning isbotidir⁶.

Chor Rossiyasi amaldorlari sug'orish inshootlarini barpo etishning yangi usullarini joriy etishga ham astoydil kirishib, quruvchilar uchun barcha sharoitlarni yaxshilashga harakat qilishgan. Masalan 1907-yilda Murg'ob daryosiga o'rnatilgan Genebika suv inshooti sifati haqida to'xtalib xonlikda o'rnatilgan qoziqli suv inshootlarining yaroqsiz ekanligi, uning o'rnini beton va temir beton inshootlari bilan almashtirish zarurligi misol keltirilib, tezlik bilan bu ishlarni keng miqyosda amalga oshirish zarurligi belgilab olingan⁷.

Suv chiqarish turbinalari ilk bor 1827-yil fransuz injeneri B.Furner ixtiro qilgan, keyinchalik 1887 yil nemis injeneri Fink parraklari buriladigan yo'naltiruvchi apparatni yaratgan bir davirda, Chor Rossiyasi zulmi ostida bo'lgan O'rta Osiyoda agrotexnikaning ibtidoiy shakllari va qoloq usullari: yerlar omoch, mola kabi qurollar yordamda ishlov berilar edi. Buxoro amirligida har yili yig'iladigan soliq turlari mavjud bo'lib, bu og'ir soliqlarni to'lash oddiy mehnatkashlar gardaniga tushar edi. Soliqlar asosiy daromad manbai hisoblanib mustamlakachilarga to'lanadigan soliq miqdori shu yig'ilgan pullarning miqdoridan kelib chiqib to'langan. Soliqlar asosan natural: oziq-ovqat, yem-xashak va safarda

TARIX

qatnashish shaklida undirilgan. Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bilan soliqlar pul formasida olina boshlagan. Masalan soliq turlari:

1. Daromad solig'i.
2. Mol-mulk solig'i.
3. Er - uchastka solig'i.
4. Hayvonlardan olinadigan soliqlar.
5. Ko'chmas mulklardan olinadigan soliq.

Shu bilan birga yana juzya, zakot, xiroj, tanob (tanobona), ushr soliqlari ham undirib turilgan. Bularning barchasi mehnatkashlarning suv va yer bilan bog'liq faoliyatlarini qattiq nazorat ostida ushlab turish maqsad qilingan.

Shu sababli Surxon-Sherobod hududlari Buxoro amirligining qoloq chekka hududlaridan biriga aylangan. Sanoat ishlab chiqarish deyarli bo'lmagan, uy-ro'zg'or buyumlarini ishlab chiqaradigan bir nechta mayda ustaxonalarni hisobga olmaganda, 1912-yilda ilk bor birinchi taxta tozalash zavodi ishga tushirilganligi buning yorqin isbotidir.

Suv inshootlarini barpo etishga Buxoro amirligida XVI asrdan boshlab e'tibor berila boshlagan. Masalan: Samarqand viloyatida qurilgan Abdullaxonbandi, kanallardan Bo'zsuv, Zax, Zang kanallarining qurilishi natijasida qishloq xo'jaligi suv bilan ta'minlanishi ma'lum miqdorda o'z samarasini bergan. Qolgan hududlarda suv chiqarish inshootlari sifatida asosan chig'ir va charxpalaklardan keng foydalanilgan.

Mustamlakachilikning dastlabki yillarida agrar sohaga jiddiy e'tibor bilan qarab, o'rta hol va o'ziga to'q dehqonlarga nisbatan ayovsiz kurash olib borib, ekin maydonlarni tortib olish, mol-mulkni musodara qilish, chorva mollarni davlat ixtiyoriga o'tkazish kabi tadbirlar bilan shug'ullandi.

O'z navbatida yersiz dehqonlarni o'z tomoniga ag'darib olish maqsadida ularga cheklangan miqdorda arziyas, tashlandiq, sho'r, hosildorligi past yerlarni taqsimlab berish orqali, qishloqlarda o'z mavqeyini mustahkamlashga harakat qildi. Hosildor, unumli yerlarni o'z ixtiyorlariga o'tkazib, yer olgan dehqonlar bu unumli yerlariga xizmat qilib, kechqurun, ishdan keyin o'z xo'jaligiga ishlashga majbur etildi. Qisqacha fikr bildirilganda dehqon o'zini shaxsiy xo'jaligiga bo'lgan qiziqishini yo'qotdi.

Surxon vohaning shimoliy g'arbiy tomonidagi Hisor va Boysun tog'laridan boshlanadigan To'palang, Sangardak, Xo'jaipok, Sherobod (qadimiy nomi Turkondaryo) daryolari vodiyni suv bilan ta'minlashda asosiy manba hisoblanadi.

Sug'orish suvi tanqis bo'lganligi sababli hududda mavjud sug'orish tizimining foydali koeffitsiyentini oshirish, tejamkorlik hisobiga ko'proq maydonlarni sug'orishga erishishi talab etiladi.

Yana shuni aytib o'tish kerakki, suv tanqisligi davrida, sug'orish ishlariga e'tibor qilmaslik, sug'orish ishlarini noto'g'ri olib borish hamda sug'orish tizimlari talab darajasida bo'lmaganligi, suvdan xo'jasizlarcha foydalanish tufayli yer osti suvlari ko'tarilib tuproqning sho'rlanish holati keskin oshgan.

XULOSA

Mustamlakachilik davrida Buxoro amirligining janubiy hududlarida barpo etilgan irrigatsiya inshootlari o'zining shu davr uchun zamonaviyligi, foydalanish uchun qulayligi bilan ajralib turgan. Bu esa yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va buz yerlarga suv chiqarish ishlari ancha samarali kechganligini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXAT

1. Kozlovskiy V.L. «Termiz shahrining tarixi». T.: 1962, 12 b.
2. Surxondaryo viloyati davlat arxivi materiallari: 58 fond, 2 ro'yxat, 11 varaq;
3. Ananov A.G. «Sherobod vohasi yerlarini Surxon suvi yordamida sug'orish loyihasi». Doshkent, Turkiston general gubernatorligi bosmaxonasi, 1911.
4. Surxondaryo viloyat davlat arxivi materiallari: 377 fond, 1 ro'yxat, 15 varaq;
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi materiallari: 377 fond, 53 ro'yxat, 6 varaq;
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi materiallari: 377 fond, 57 ro'yxat;
7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi materiallari: 377 fond, 1 to'plam 15 ro'yxat;
8. Kimberg N. V. Pochvy pustynnoy zony Uzbekistana. – Tashkent, 1974 g.
9. Tojiev U., Namozov X., Nasretdinov Sh., Umarov K. O'zbekiston tuproqlari. – Tashkent, 2004 g.